

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



«TASDIQLAYMAN»
O'quv ishlari bo'yicha
prorektor **X.Xamzayev**
“ ” 2026 yil



«KELISHILGAN»
O'quv-uslubiy boshqarma
boshlig'i **A.Norboyev**



«KELISHILGAN»
Jismoniy tarbiya va sport
 fakulteti dekani
T.Q.Axmedov

61010300 – Sport faoliyati (voleybol) yo'nalishi bitiruvchilari uchun
mutaxassislik fanlaridan

YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI
DASTURI

Bilim sohasi:	1000 000 - Xizmatlar
Ta'lim sohasi:	1010 000 – Xizmat ko'rsatish sohasi
Ta'lim yo'nalishi:	61010300 – Sport faoliyati (kurash)

Jizzax - 2026

Ushbu dastur O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-dekabrda 836-son qarori 1-ILOVA si bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibi to'g'risida"gi NIZOM talablari asosida ishlab chiqilgan.

Dastur Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi va Sport turlarini o'qitish metodikasi kafedralarining 2026-yil 10-fevraldagi navbatdan tashqari qo'shma yig'ilishida muhokama qilingan hamda Jismoniy tarbiya va sport fakultetining 2026-yil 11-fevraldagi navbatdan tashqari Kengashida ma'qullangan. Universitet Kengashining 2026-yil 12-fevraldagi navbatdan tashqari yig'ilishida tasdiqlangan.

Tuzuvchilar:	A.I.Olimov	"Sport turlarini o'qitish metodikasi" kafedrası mudiri. PhD. dotsent
	Sh.O'.Atamurodov	"Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodika" kafedrası mudiri. dotsent
	M.O.Muqimov	"Sport turlarini o'qitish metodikasi" kafedrası PhD. dotsent
	B.O'. Turg'unov	"Sport turlarini o'qitish metodikasi" kafedrası dotsenti.

Taqrizchilar:	F.Q.Axmedov	"Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodika" kafedrası professori
	N.K. Ruzmetov	URDU "Yakka kurash kafedrası" mudiri

KIRISH

2025/2026 o'quv yilida 61010300 – Sport faoliyati (voleybol) ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 25-noyabrda 388-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Malaka talablari asosida ishlab chiqilgan o'quv rejasidagi majburiy fanlardan o'tkaziladi.

YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI O'TKAZILADIGAN FANLAR TARKIBI:

1. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi
2. Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida mashg'ulotlarni tashkil etish
3. Oquv mashq bosqichida mashg'ulotlarni tashkil etish
4. Tanlangan sport turi nazariyasi va uslubiyati
5. Sport mahoratini takomillashtirish bosqichida mashg'ulotlarni tashkil etish
6. Tanlangan sport turida rejalashtirish va hakamlilik
7. Ixtisoslikka kirish

Yakuniy davlat attestatsiyasi maqsadi va vazifalari

Yakuniy davlat attestatsiyasi maqsadi – bitiruvchilarning mutaxassisliklariga oid egallangan bilim, ko'nikma va malakalari (jismoniy va sport turlari bo'yicha umumiy va maxsus tayyorgarlik) holati darajasini belgilangan mezonlar asosida aniqlash hamda baholash.

Yakuniy davlat attestatsiyasi universitetdagi har bir ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha tashkil etiladigan yakuniy davlat attestatsiya komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi.

Bitiruvchining bilim, malaka va ko'nikma darajasining davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiq kelishini kompleks baholash;

Yakuniy davlat attestatsiyasi natijalari bo'yicha bitiruvchilarga bakalavr (magistr) akademik darajasini berish masalasini hal qilish;

Komissiya faoliyati natijalarini tahlil qilish va ular asosida oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlashni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Ushbu dasturda 61010300 - sport faoliyati voleybol yo'nalishi bitiruvchilar uchun majburiy fanlaridan Davlat attestatsiyasi nazariy va amaliy shaklda o'tkazish tartibi va baholash mezonlari

Ixtisoslik fanlari bo'yicha o'tkaziladigan Davlat attestatsiyasi nazariy (og'zaki) va amaliy tartibda o'tkaziladi:

a) Nazariy – bunda bitiruvchiga ikkita savoldan iborat variant beriladi. Shundan ikkita savol majburiy fanlar bo'yicha bo'ladi.

b) Amaliy – Bitiruvchilar tanlangan sport turi doirasida egallagan bilim, ko'nikma va malakalari holati darajasini belgilangan mezonlar asosida aniqlash hamda baholashdan iborat.

Majburiy fanlaridan Davlat attestatsiyasi quyidagi mezon asosida baholanadi.

1. Nazariy tartibda har bir variant ikkitadan savoldan iborat bo'ladi. Shundan har bir savol maksimal yig'indisi sinov natijalariga ko'ra – **10 ballni** tashkil etadi, ikkala savol yig'indisiga ko'ra jami maksimal **20 ball** yig'adi.

➤ berilgan har bir savolga to'g'ri va to'liq javob berilsa, savolning mazmuni, mohiyati to'g'ri va izchil yoritilsa, shuningdek, ijodiy yondashilsa, mantiqiy yaxlitlikka erishilsa o'zlashtirish ko'rsatkichi (**Majburiy fanlari 8-10 ball**)

➤ berilgan savolga to'g'ri javob berilsa, biroq berilgan savolning mazmuni to'liq bayon etilmagan bo'lsa, o'zlashtirish ko'rsatkichi (**Majburiy fanlari 6-7 ball**) Ixtisoslik fanlaridan savollar Davlat attestatsiyasi bo'yicha umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichi 0 dan 20-ballgacha baholanadi (**17-20 ball**) – a'lo, (**13-16**) – yaxshi, (**9-12 ball**) – qoniqarli, (**1-8 ball**) – qoniqarsiz.

2. Sport faoliyati (voleybol yo'nalishi bo'yicha) bo'yicha **80-ballik** baholash tizimi asosida amaliy imtihonlar o'tkaziladi.

Davlat attestatsiyasida bitiruvchi **nazariy** (o'zaki) va **amaliy imtixon**dan maksimal -100 ball to'playdi.

A'lo - 90-100 ball. Yaxshi – 70-89 ball. Qoniqarli – 60-69 ball. Qoniqarsiz 0-54 ball.

Yakuniy davlat attestatsiyasining me'yoriy talablari va baholash mezonlari (amaliy)

Ixtisoslik, erkaklar va ayollar

Diametri 2 m aylana chiziq ichida navbatma-navbat pastdan va yuqoridan o'z ustida to'p uzatish (20 marta) (Maksimal ball 20)		2, 3, 4 zonalarda to'siq qo'yish taqlidini bajarish va 1,6,5 zonalarga 3 martadan, jami 9 marta to'pni o'yinga kiritish texnikasi: (Maksimal ball 20)		«Archasimon» yo'nalishda yugurish testi (92 m) (Maksimal ball 20)			Joyidan turgan holatda uzunlikka sakrash (sm) (Maksimal ball 20)			Nazariy savollarga javob berish. (2 ta savol beriladi) (Maksimal ball 20)	
Natija	Ball	Natija	Ball	O'g'il bolalar natija	Qiz bolalar natija	Ball	O'g'il bolalar natija	Qiz bolalar natija	Ball	Natija	Ball

19-20	17-20 ball	Texnikani to'liq va xatosiz bajarsa, Kiritilgan to'plardan 8-9 tasi belgilangan zonaga tushsa	17- 20 ball	23,00- 23,50 sek	25, 00 -25, 50 sek	17- 20 bal l	240- 230 sm	200- 195 sm	17- 20 bal l	Berilgan savollarga to'liq javob bersa	17- 20 ball
17-18	13-16 ball	Texnikani bajarishda qisman xatolikka yo'l qo'ysa, Kiritilgan to'plardan 6-7 tasi belgilangan zonaga tushsa	13- 16 ball	24,00- 24,50 sek	26, 00-26, 50 sek	13- 16 bal l	229- 225 sm	194- 180 sm	13- 16 bal l	Berilgan savollarga qoniqarli javob bersa	13- 16 ball
15-16	9-12 ball	Texnikani bajarishda qo'pol xatolikka yo'l qo'ysa, Kiritilgan to'plardan 4-5 tasi belgilangan zonaga tushsa	9-12 ball	25,00- 25,50 sek	27, 00-27, 50 sek	9- 12 bal l	224- 220 sm	179- 170 sm	9- 12 bal l	Berilgan savollarga nisbatan javob bersa	9- 12 ball
10-14	1-8 ball	Texnikani bajarishda noto'g'ri hatti- harakatlarga yo'l qo'ysa, Kiritilgan to'plardan 2-3 tasi belgilangan zonaga tushsa	1-8 ball	26,00- 26,50	28, 00 -28, 50 sek	1-8 bal l	215- 219 sm	160 - 169s m	1-8 bal l	Berilgan savollarga qisman javob bersa	1-8 ball
1-9	0 ball	Texnikani umuman bajara olmas, Kiritilgan to'plardan 1 tasi belgilangan zonaga tushsa	0 ball	27,00 sek	29 sek	0 bal l	214 sm	159 sm	0 bal l	Berilgan savollarga qoniqarsiz javob bersa	0 ball

**VOLEYBOL IXTISOSLIGI BO'YICHA BITIRUVCHI BOSQICH
TALABALARI UCHUN YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYA NAZORAT
SAVOLLARI**

1. O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport tizimi va unda voleybolning o'rni.
2. Voleybol bo'yicha o'qituvchi – trenerning kasbiy-pedagogik modeli va funksional faoliyati.
3. Voleybol “kecha”, “bugun” va “ertaga”.
4. Jismoniy tarbiya, ommaviy va professional sportni rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan farmon hamda qarorlarning voleybolni shakllanishiga ta'siri.
5. Voleybol bo'yicha o'tkazilayotgan milliy chempionatlar, Kubok musobaqalari va uch bosqichli ommaviy musobaqalarning ahamiyati.
6. Holat va harakatlanishlar texnikasi, ularni xujum va himoya usullarida qo'llanilishi.
7. Yuqoridan to'p uzatish usullari va ularning texnikasi.
8. To'p uzatishga o'rgatish tartibi, mashqlari va ushbu jarayonda moslamalardan foydalanish.
9. Pastdan to'p qabul qilish va uzatish texnikasi, unga o'rgatish metodikasi.
10. To'pni o'yinga kiritish turlari va ularning texnikasi, o'rgatish metodikasi.
11. Xujum zarbalarini ijro etish zonalar va turlari. To'g'ri yo'nalishda zarba berish texnikasi va unga o'rgatish.
12. To'pni burib zarba berish texnikasi va unga o'rgatish metodikasi.
13. Zarba berish fazalari, ularni sakrash balandligi va xujum samaradorligiga ta'siri.
14. To'siq qo'yish turlari, ularning texnikasi va o'rgatish metodikasi.
15. Zarba berish va to'siq qo'yish uchun sakrash harakatining farqlari.
16. To'pni ko'krak bilan yiqilib qabul qilish texnikasi va unga o'rgatish.
17. Ikkinchi to'pni uzatish taktikasi.
18. To'p kiritish taktikasi va unga o'rgatish metodikasi.
19. Zarba berish taktikasi va unga o'rgatish metodikasi.
20. Xujumda guruhli taktikasini amalga oshirish variantlari.
21. To'p uzatish taktikasi va unga o'rgatish metodikasi.
22. Ikkinchi to'pni uzatish taktikasi va unga o'rgatish metodikasi.
23. 2, 3 va 4 zonadan zarba berish taktikasi va unga o'rgatish metodikasi.
24. Orqa zonalardan zarba berish taktikasi va unga o'rgatish metodikasi.
25. To'siq qo'yish taktikasi. Yakka va guruxli to'siq qo'yish taktikasi.
26. O'rgatish bosqichlari va uslublari.
27. O'rgatish vositalari va prinsiplari.
28. O'rgatish va takomillashtirish jarayonida qo'llaniladigan ilg'or pedagogik texnologiyalar va ulardan foydalanish afzalligi.
29. Umumiy jismoniy tayyorgarlik haqida tushuncha va uni texnik-taktik maxoratni shakllantirishdagi o'rni.
30. Maxsus jismoniy tayyorgarlik, uni umumiy jismoniy tayyorgarlik va texnik-taktik mahoratni shakllantirishdagi o'rni.
31. Kuch va kuchlanish turlari, ularni rivojlantirish va voleybolga mos tartibda tarbiyalash.
32. Chaqqonlik – koordinatsion qobiliyat xaqida tushuncha va uni

- voleybolchilarda rivojlantirish metodikasi.
33. Egiluvchanlik, uning turlari va shakllantirish metodikasi.
 34. Zamonaviy voleybol maydonchasining formati – o'lchamlari, uskuna va jixozlar o'lchamlari.
 35. O'yinchilarni maydonda joylashishi, harakatlanish va joy almashinishi.
 36. Musobaqa tashkil qilish va o'tkazish shartlari, musobaqa turlari va uni o'tkazish tizimlari. O'yin jadvallarini tuzish.
 37. Voleybol bo'yicha o'tkaziladigan dars va mashg'ulotning farqi, tuzilishi, qismlari, ularning maqsadi va vazifalari.
 38. O'rgatish va o'zlashtirish dinamikasini nazorat qilish uslublari hamda testlari olingan natijalardan foydalanish.
 39. Zamonaviy voleybolning dolzarb masalalari. Texnik, taktika, jismoniy va psixologik tayyorgarlikda hal etilishi muhim masalalar.
 40. Voleybolda taktika va strategiya. Taktikaning psixofiziologik mohiyati.
 41. Ko'p yillik sport trenirovkasi bosqichlarida turli yoshli voleybolchilar tayyorlash. Tayyorgarlik turlari bo'yicha me'yoriy talablar.
 42. Voleybolga tanlov o'tkazish jarayoni. Tanlov ko'p bosqichli jarayon va tanlov me'yoriy testlari.
 43. Rejalashtiruv xujjatlari, yillik tayyorgarlik davrlari va bosqichlari (mikro, mezo va makro sikllar). Ularda tayyorgarlik turlari bo'yicha qo'llaniladigan mashqlar xajmining o'zaro nisbati. (jismoniy, texnik, taktik tayyorgarlik).
 44. Tayyorgarlik davri, uning umumiy jismoniy, maxsus jismoniy va musobaqaoldi tayyorgarlik bosqichlarining maqsadi hamda vazifalari.
 45. Musobaqa davri, unda musobaqalarni o'tkazish tizimi.
 46. O'tish davri, uning maqsadi va vazifalari.
 47. Bazaviy va musobaqaoldi tayyorgarlik bosqichlarida yuklamalar xajmi hamda shiddatining nisbatan o'zgarishi.
 48. SMda shug'ullanuvchi tayyorgarlik guruhleri, ularning soni, mashg'ulotlarning haftalik xajmi.
 49. Boshlang'ich tayyorgarlik guruhi, har bir guruhda shug'ullanuvchilar soni mashg'ulotlar xajmi, shug'ullanish muddati.
 50. Bir o'quv-mashg'ulot yilidan ikkinchi o'quv-mashg'ulot yiliga ko'chirish shartlari.
 51. SMda shug'ullanuvchi tayyorgarlik guruhlarida texnik tayyorgarlik va uning to'liq tafsiloti.
 52. SMda shug'ullanuvchi tayyorgarlik guruhlarida taktik tayyorgarlik va uning to'liq tafsiloti.
 53. Sakrovchanlik, vertikal sakrash fazalari, sakrashda qo'llar harakatining o'rni. Sakrovchanlikni baholash.
 54. Sakrash chidamkorligi, uni rivojlantirish va baholash testlari, uning ahamiyati.
 55. Maxsus kuch, uning turlari, kuch sifatlarining fiziologik tafsiloti. Sakrash va zarba berishni ta'minlovchi kuch turlarini rivojlantirish.
 56. Egiluvchanlik, uni rivojlantirish shartlari, egiluvchanlikni voleyboldagi ahamiyati, uni ish qobiliyatini tiklanishidagi o'rni, harakatlar amplitudasi.
 57. O'zbekistonda voleybol taraqqiyotini boshqaruvchi organlar: davlat va

- jamoat organlari, ularning funksional faoliyati.
58. Halqaro voleybol federatsiyasi (FIVB), uning bo'limlari, ish faoliyati va funksiyalari.
 59. Voleybolni taraqqiy etishida "Umid nihollari", "Barkamol avlod", "Universiada" kabi ommaviy sport musobaqalarining o'rni.
 60. Voleybolni sog'lomlashtirishdagi o'rni, sag'lomlashtirish maskanlarida voleybol musobaqalarini o'tkazish.
 61. Maxsus psixologik tayyorgarlik, uning to'liq tafsiloti.
 62. Musobaqa oldi psixologik tayyorgarligi. "Stress", "apatiya", "lixoradka" haqida tushuncha.
 63. Ko'rish kengligi, ko'rish chuqurligi, kuzatish, farqlash, qaror qabul qilish va ularni voleybolchilar tayyorlashdagi ahamiyati.
 64. O'ta xayajlanish, qo'rqish, xavotirlanish, ularning psixologik tafsiloti va bartaraf etish imqatlarioniy.
 65. Tushkunlikka tushish, talvasaga tushish, g'azablanish xolatlari va ularni bartaraf etish.
 66. Jamoani musobaqa o'yiniga tayyorlash, shaylantirish va o'yin davomida ruhiy-emotsional holatni ko'tarib borish.
 67. Musobaqa davomida jamoani boshqarish. Partiyalar orlig'ida va tanafuslarda ko'rsatma berish.
 68. Yuqori malakali va terma jamoalar bilan mashg'ulot o'tkazish xususiyatlari. Tayyorgarlik siklini e'tiborga olish, mashg'ulotni modellashtirilgan tartibda o'tkazish.
 69. Yuqori malakali voleybolchilarga mo'ljallangan model ko'rsatgichlar va me'yoriy talablar, o'rnatilgan mezonlar.
 70. Musobaqa Nizomi, uning tarkibiy mazmuni.
 71. Musobaqani "chiqib ketish" tizimida o'tkazish shartlari, kamchiliklari va afzalliklari. O'yinlar jadvali va hisobot. Misollar.
 72. Tezkorlik turlarini baholash testlari, natijalardan foydalanish amaliyoti.
 73. Kuch turlarini baholash testlari, natijalardan foydalanish amaliyoti.
 74. Tezkorlik-kuch chidamkorligini baholash testlari, natijalardan foydalanish imqoniyatlari.
 75. Sakrovchanlikni baholash uslublari, natijalardan foydalanish.
 76. Sakrash chidamkorligini baholash testlari va natijalardan foydalanish afzalligi.
 77. Jismoniy, texnik, taktik, psixologik tayyorgarlikning o'zaro bog'liqligi va uni integral tayyorgarlikda e'tiborga olish.
 78. Jamoaning himoyalani tizimlari: "Burchagi oldinga" va "Burchagi orqaga" tizimlari.
 79. Orqa zonalaridan xujum zarbalarining ijro etish afzalliklari.
 80. Voleybol amaliyotida qo'llaniladigan me'yoriy va nazorat testlari, ularni qo'llash metodikasi.
 81. Musobaqa samaradorligini aniqlash uslublari va ulardan foydalanish.
 82. Sakravchanlik va sakrash chidamkorligini mashg'ulot hamda musobaqa yuklamalari ta'sirida tushib ketishi sabablari va ularni tiklash yo'llari.

83. Voleybol amaliyotida qo'llaniladigan moslama, uskuna va trenajyorlar, ulardan foydalanish afzalliklari.
84. Voleybol o'yin funksiyalari.
85. Mashhur o'zbek voleybolchilari va voleybolchilar tayyorlashda ularning nomi hamda salohiyatini targ'ibot qilish.
86. Yillik tayyorgarlik jarayonining o'tish davrida qo'llaniladigan mashqlar turlari, mashg'ulotlar xajmi va shiddati.
87. Haftalik mikrotsikllar variantlari, ularning tarkibiy tuzilishi va mazmuni.
88. O'rgatishda tushuntirish va ko'rsatish uslublarining mazmuni, ularning ustuvor ahamiyati.
89. O'rgatishda harakatni (usulni) qismlarga bo'lib va to'lik holda o'rgatish uslublari. Misollar.
90. O'rgatishda takrorlov, xatolarni tuzatish va o'zaro tahlil uslublaridan foydalanish afzalliklari.
91. O'rgatishda o'yin va musobaqa uslublaridan foydalanish.
92. O'rgatuvchi mashqlar tasnifi: tayyorlovchi, yordamchi va yondoshtiruvchi mashqlar. Misollar.
93. O'rgatuvchi mashqlar tasnifi: taqlidiy va texnik-taktik mashqlar. Takliflar.
94. Razminkadan avval bajariladigan stretching – egiluvchanlik mashqlarining funksional ahamiyati.
95. Voleybolga ixtisoslashtirilgan yopiq sport inшоati: yorug'lik, atmosfera bosimi, havo namligi va harorat.
96. Jamoaning sardori va lideri, ularning funksiyalari.
97. Xakamlarning funksional vazifalari, imo ishoralari.
98. Voleybol to'garagiga qabul qilish shartlari va xujjatlari.
99. Tayyorgarlik guruhlarini yosh ko'rsatgichlari bo'yicha tabaqalashtirilishi va o'quv-mashg'ulot yillarining davom etishi.

Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar hamda axborot manbalari.

Darslik va o'quv qo'llanmalar

1. Boltayev.Z.B. Voleybol nazariyasi va uslubiyati. // Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. T.: 2019. – 444 bet.
2. Mahmudov M.K., Narzullayev F.A Sport va harakatli o'yinlarni o'qitish metodikasi (Voleybol) O'quv qo'llanma. B.: 2019. – 169 bet.
3. Pulatov A.A. Voleybol nazariyasi va uslubiyati. // Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. T.: 2020. – 440 bet.
4. Turg'unov.B.O'. Sport va xarakatli o'yinlar (voleybol). O'quv qo'llanma. Jizzax: 2022.135 bet.
5. Mahmudov M.K. Sport mahoratini oshirish (Voleybol) Darslik. B.: 2022. – 228 bet.
6. Pulatov A.A. Voleybolni o'qitish metodikasi. // o'quv qo'llanma. T.: 2023. – 214 bet.
7. Turapova.Sh.X. Voleybol nazariyasi va uslubiyati. o'quv qo'llanma.T.2024: 156 bet.

8. Qo'shimcha adabiyotlar:

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2024-yil 19-iyuldagi. "Voleybol sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risi"da PQ-274-son qarori.

10. SH.M.Mirziyoyev "Sog'lom turmush tarzini keng tadbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi farmoni-2020 yil.

Internet saytlari

1. <https://lib.jdpu.uz/library>
2. www.ziynet.uz.
3. <https://www.natlib.uz>
4. www.lex.uz
5. <https://lib.jdpu.uz/library>

ESLATMA: Yakuniy davlat attestatsiya jarayonida qo'yilgan bahodan norozi bo'lgan bitiruvchilar yakuniy davlat attestatsiyasi ballari e'lon qilingan kundan e'tiboran 24-soat ichida appelyatsiya komissiyasiga murojaat qilishga haqli. Yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi va talaba o'rtasida baholash ballari bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar maxsus appelyatsiya komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi hamda DAK raisi bilan kelishilgan holda xulosa qilinadi.

Kafedra mudirlari



A.I.Olimov

Sh.U.Atamurodov